

**BOLALAR MUSIQA VA SAN`AT MAKTABIDA DARS
MASHG`ULOTLARIDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARDAN
FOYDALANISH**

Abdumajidova Nozima Farhod qizi

20-sон Bolalar musiqa va san`at maktabi o`qituvchisi

Annotatsiya: *Bolalar musiqa va san`at maktablarida o`quv mashg`ulotlarida zamonaviy texnologiyalardan (kompyuter, zamonaviy qurilmalar, audio video yozuvlar, proektor) foydalanish darsni qiziqarli o`tishiga, darsning mazmun mohiyatini to`laqonli o`zlashtirishga yordam beradi. Qolaversa, rivojlangan mamlakatlar qatorida musiqa darslari tashkil etilsa, yosh kadrlarning salohiyati ham yuksak darajada bo`ladi.*

Kalit so`zlar: Axborot texnologiya. Ko`rgazmali vosita. Video. Zamonaviy taraqqiyot. Elektron musiqa asboblari. Karaoke. Videoproyektor. Elektron doska. Musiqiy ensiklopediyalar.

Ayni vaqtida Respublika ijtimoiy hayotiga shiddatli tezlikda axborotlar oqimi kirib kelmoqda va keng ko`lamni qamrab olmoqda. Axborotlarni tezkor suratda qabul qilib olish, ularni tahlil etish, qayta ishslash, nazariy jihatdan umumlashtirish, xulosalash hamda o`quvchiga etkazib berishni yo`lga qo`yish ta`lim tizimi oldida turgan dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Ta`lim-tarbiya jarayoniga pedagogik texnologiyani tadbiq etish yuqorida qayd etilgan dolzarb muammolarni ijobiy hal etishga hizmat qiladi. Vizual vositalar Vizual (ko`rgazmali) vositalar pedagogik texnologiya jarayonida talaba, o`quvchilar o`z ko`zlari bilan ko`rishlari uchun mo`ljallangan barcha vositalarni o`z ichiga oladi. Bularga sinf doskasidagi yozuv va boshqa tasvirlar, kitoblardagi yozuv va tasvirlar, tarqatma materiallar, o`quv plakatlari, foto suratlar, tasviriy san`at asarlari, video, kino tasvirlar, turli buyumlar va boshqalar kiradi. Ko`rgazmali vositalarning pedagogik texnologiyada qo`llanishi talaba o`quvchilarga o`rgatish kerak bo`lgan axborotga tegishli mazmunni turli shakl va usullarda ko`rsatish orqali tez, aniq va to`g`ri tushuntirish imkoniyatini beradi. Audio vositalar eshitish orqali axborotni o`rganish, o`zlashtirish imkoniyatini beradi. Hozirda ko`proq audiovizual vositalar, ya`ni bir vaqtida eshitish va ko`rishga xizmat qiluvchi vositalar: kino va boshqa ovozli video tasvirlardan foydalaniadi. Aslida esa amaliyotda mavjud sharoit va vaziyatdan kelib chiqqan holda, ijodiy yondashuv asosida mavjud vositalardan kompleks foydalanish eng yaxshi samara berishi mumkin. Ayniqsa, musiqachilarini ta`lim muassasalarida tarbiyalashda audiovizual jihozlarga tayanib o`quv-tarbiyaviy, uslubiy va ilmiy-tadqiqiy ishlarni rejorashtirish, tashkil qilish va amalga oshirish, o`quvchining o`zlashtirish darajasi va teranligini aniqlash va musiqa olami hodisalarini mustaqil anglash ko`nikmalarini singdirish, o`quv jarayonini, o`quv-uslubiy, ma`naviy-tarbiyaviy va ilmiy ishlarni tashkil etishning ilg`or tajribalarini umumlashtirish va keng yoyish allaqachon yo`lga qo`yilgan. Bunday jihozlar yordamida axborotni izlash, tanlab olish, almashish va foydalanishni tizimlashning oqilona vositalarini qo`llash, uning tekshiruvini va manbalarni tasniflashni

MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

yo‘lga qo‘yilgan, albatta. Ta’lim yo‘nalishi va yondosh masalalar yuzasidan chop etilayotgan maxsus o‘quv-uslubiy va ilmiy adabiyotlarga tayanish, o‘quv-uslubiy va ilmiy faoliyatida qo‘llaniladigan texnik vositalardan foydalanish odat tusiga kirgan.

So‘nggi yillarda nutqimizda innovatsiya, multimedia, interaktiv, virtual texnologiya kabi yangidan yangi so‘zlar paydo bo‘ldi. Bugungi tezkor va shiddatli kechayotgan axborotlar oqimida inson ongi avvalgi ajdodlaridan bir necha barobar ko‘proq ma’lumot qabul qilmoqda. Olimlarning aniqlashlaricha inson asosiy ma’lumotlarni taxminan 72%ni vizual tarzda ya’ni ko‘rish orqali qabul qilar ekan. Shunday ekan, ta’lim tizimida ham mazkur vizual multimedia vositalarini yanada kengroq joriy qilish fursati yetdi. Vizual (ko‘rgazmali) vositalar pedagogik texnologiya jarayonida talaba-o‘quvchilar ko‘z bilan ko‘rishlari uchun mo‘ljallangan barcha vositalarni o‘z ichiga oladi. Bularga sinf doskasidagi yozuv va boshqa tasvirlar, kitoblardagi yozuv va tasvirlar, tarqatma materiallar, o‘quv plakatlari, foto suratlar, tasviriy san’at asarlari, video, kino tasvirlar, turli buyumlar va boshqalar kiradi. Ko‘rgazmali vositalarning pedagogik texnologiyada qo‘llanilishi talaba o‘quvchilarga o‘rgatish kerak bo‘lgan axborotga tegishli mazmunni turli shakl va usullarda ko‘rsatish orqali tez, aniq va to‘g‘ri tushuntirish imkoniyatini beradi. O‘quv maskanlarining xonalarida imkon qadar kompyuter, videoproyektor, elektron doska, DVD kabi zaruriy ashyolar bo‘lishi darkor. Zero ushbu jihozlar mazkur dargohlarda malakali pedagoglar tomonidan olib boriladigan darslarning yanada mazmunli va tushunarli bo‘lishida muhim rol o‘ynaydi. Yuqorida ta’kidlanganidek, zamonaviy taraqqiyot insoniyatdan tobora tezkorlikni talab qilmoqda. Audio vositalar eshitish orqali axborotni o‘rganish, o‘zlashtirish imkoniyatini beradi. Hozirda ko‘proq audiovizual vositalar, ya’ni bir vaqtida eshitish va ko‘rishga xizmat qiluvchi vositalar: kino va boshqa ovozli video tasvirlardan foydalaniladi. Aslida esa amaliyotda mavjud sharoit va vaziyatdan kelib chiqqan holda, ijodiy yondashuv asosida mavjud vositalardan kompleks foydalanish eng yaxshi samara berishi mumkin³⁷. Boshqacha qilib aytganda, kam vaqt sarflab ko‘proq natijaga erishishga undamoqda. Shu bois tovushdan tez uchuvchi samolyotlar, transport vositalari, bir vaqtning ichida bir nechta vazifani bajaruvchi elektron qurilmalar kashf etildi. Xuddi shu qarashni ta’lim tizimssiga qaratadigan bo‘lsak, bizda ayrim hollarda dars tizimida ko‘proq nazariy bilimlar berilishi odat tusiga kirganligini guvohi bo‘lamiz. Shuningdek, ushbu axbort-resurs markazlarida barcha zamonaviy texnologiyalardan unumli foydalangan holda kitoblarning elektron shakldagi nusxalarini yaratish ishlari olib borilsa nur ustiga a’lo nur bo‘lar edi.³⁸

Yangi axborot texnologiyalari zamonaviy musiqa amaliyotida tobora ko‘proq qo‘llanilmoqda. Elektron musiqa asboblarining yangi navlari (sintezatorlar, musiqali kompyuterlar) paydo bo‘ladi. Musiqiy ta’limda multimediali tizimlardan foydalanish o‘quv maqsadlarida lazer disklarida yozilgan musiqiy ensiklopediyalar, kitoblar, ma’lumotnomalar va turli antologiyalardan foydalanish imkonini beradi. Zamonaviy musiqa darsi - bu zamonaviy pedagogik texnologiyalar, kompyuter texnologiyalari

³⁷ Akbarov I.A. “Musiqa lug‘ati” Maxsus muharrir T.B.G’ofurbekov. T., 1997.112-b.

³⁸ Mansurov A. Musiqa san’ati fanlarida zamonaviy axborot texnologiyalari Toshkent – 2016y 38-b

MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

qo'llaniladigan va elektron musiqa asboblari qo'llaniladigan dars. Musiqiy kompyuter texnologiyalari darsdan tashqari va konsert mashg'ulotlarida ham keng qo'llaniladi.

XXI asr musiqiy pedagogikasi sohasidagi yetakchi yo'naliishlardan biri bu talabalarni axborot va kompyuter texnologiyalari bilan tanishtirishdir. Axborot va kompyuter texnologiyalarini o'zlashtirish obyektiv ravishda ijrochilarining kasbiy tayyorgarligi uchun ham, yordamchi o'quv materiallari manbai sifatida foydalanish uchun ham (ma'lumotnama, o'qitish, tahrir qilish, ovoz yozish, ovozni takrorlash va boshqalar) zarurdir.

Bundan tashqari, pedagogik jarayonga axborot-ta'lim resurslarini kiritish o'qituvchi-musiqachilardan media malakasini, maxsus kompyuter dasturlari bilan ishslash qobiliyatini, axborot bilan ishslashda foydalanuvchining ko'nikmalarini talab qiladi va o'qituvchining malakasini oshirishga yordam beradi..

Musiqa tinglayotganda video ni ko'rish uning mazmuniga yaxshiroq kirib borishiga yordam beradi, klassik musiqani tushunishga yordam beradi.

Musiqa darsi ijodiy muhitni yaratish bilan tavsiflanadi, chunki musiqa darslarining mazmuni hissiyotlar va ularning subyektiv tajribasidan iborat. Bu aniq tarkibni aniqlaydi

Globallashuv sharoitida ta'lim tizimini axborotlashtirish jarayonlarini tadqiq qilish turli xil texnikani, ish turlarini va yangi multimedya vositalarini tanlashni taqozo etadi.

Musiqiy kompyuter texnologiyalari musiqiy mahsulotlarni texnik qayta ishlab chiqarishda tubdan yangi bosqichni ochdi: nota bosib chiqarishda, amaliy musiqa janrlarida, ovoz yozish vositalarida, tovushni qayta ishlab chiqaruvchi uskunalarning sifat imkoniyatlarida, teatr va konsert faoliyatida, ovozda. musiqani loyihalash va translyatsiya qilish (shu jumladan Internet orqali)ni texnik imkoniyatlarini boyitdi.

Zamonaviy kompyuter telekommunikatsiyalari turli xil o'quv ma'lumotlarini beradi, qidiruvni soddalashtiradi, uni yanada qulay qiladi, shuningdek uni asl shaklida taqdim etadi. Bu zamonaviy kompyuter texnologiyalarining an'anaviy o'qitish vositalaridan farqi. Zamonaviy kompyuter texnologiyalari, shu jumladan Internet texnologiyalari, umuman, ta'lim tizimiga mutlaqo yangi uslubiy yondashuvlarni ishlab chiqish va joriy qilishni nazarda tutadi.

Internet texnologiyalaridan foydalanganda materialni taqdim etish shakli asosan darsning o'ziga xos turiga, dars mazmuniga, shuningdek o'qituvchining mahoratiga qarab belgilanadi.

O'qitishning yangi usullari materiallari multimediyali ta'lim resurslari deb ataladi. Bunday manbalarga quyidagilar kiradi: elektron kutubxonalar, ensiklopediyalar, nota arxivlari, musiqiy antologiyalar, virtual muzeylar (shu jumladan musiqa asboblari muzeylari), o'quv musiqiy dasturlari kataloglari, biriktirilgan test topshiriqlari bilan o'quv kursi sifatida ishlab chiqilgan elektron qo'llanmalar. Bu manbalar nafaqat o'qituvchining ma'ruzalarini to'ldiribgina qolmay, balki musiqiy tarixiy va nazariy darsning mustaqil rivojlanishiga asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.



MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

Internet -texnologiyalarga asoslangan axborot -ta'lim resurslari materiallarni taqdim etish, bilimlarni nazorat qilish va tekshirish, o'qituvchi va talabaning o'zaro ta'siri shaklida farqlanadi.

Musiqiy o'qitish dasturini shartli ravishda quyidagi guruhlarga bo'lish mumkin.

Musiqqa pleyerlari;

Karaoke kuylash uchun dasturlar;

Musiqiy konstrukturlar;

Musiqiy ensiklopediyalar;

O'quv dasturlari; improvizatsiya, guruhda o'ynash, musiqqa bastalash dasturlari.

Bunday axborot resurslarini o'quv jarayoniga, shu jumladan Internet -resurslarga ishlab chiqish va joriy etish kadrlar tayyorlash chegaralarini ancha kengaytiradi, uni yanada samarali va rang -barang qiladi.

Shuningdek, bugungi texnik vositalar yordamida darslarni unumli, qiziqarli, samarali tarzda o'tish mumkin. Masalan, karaoke dasturidan xor, vokal, estrada va an'anaviy xonandalik bo'yicha dars mashg'ulotlarida keng foydalanishimiz mumkin. Bunda darsni o'quchilarga qiziqtiribgina qolmay anchagina vaqtidan ham yutsa bo'ladi. Hozirda musiqqa maktablarida ovoz kuchaytirgich (kalonka) dan yaxshi foydalaniladi. Lekin ish rejadagi asarlar karaoke qilib so'zlar yozib chiqilsa o'quvchilar bir vaqtda qo'shiq so'zini ham yod oladi. Shunindek, qo'shiq so'zini yozib yoki qog'ozga nusxa qilishlar ham kamayadi. Buning uchun esa Musiqqa maktablari proyektorlar bilan ta'minlanishi kerak.

Bolalar musiqqa va san'at maktablarida darslarda axborot texnologiyalardan foydalanish deganda elektron kutubxonalarini ham misol keltirishimiz mumkin. Bugungi kunda bir nechta elektron kutubxonalar mavjud. Lekin aynan musiqqa sohasida bunday kutubxonalar juda kam. Bunga sabab esa, bor adabiyotlarning elektron varianti mavjud emasligidir. Shuningdek, musiqqa sohasidagi eng kerakli adabiyotlarning ko'pginasi rus yoki boshqa chet tillarida ekanlidigidir. Shu sababdan ham bizga biror bir ma'lumot kerak bo'lganda adabiyotlarni topish, undan foydalanish bir muncha qiyinlashadi. Buni oldini olish uchun adabiyotlarni ona tilimizga tarjima qilib uni skaner qilish lozim. So'ngra elektron kutubxonaga joylashtirish kerak bo'ladi. Qolaversa, bugungi kunda telegram sahifalari orqali musiqiy adabiyot va notalarni yetkazib berayotgan kanallar va ularning rahbarlari hayrli ishlar qilib kelmoqda. Dutor uchun nota yoki biror bir ma'lumot kerak bo'lsa "Dutor uchun notalar arxivii" nomli telegram kanalidan olishingiz mumkin va h.k.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sharipova G.M. "Musiqa o'qitish metodikasi" o'quv qo'llanma T. 2008
2. Akbarov I.A. "Musiqa lug'ati" Maxsus muharrir T.B.G'ofurbekov. T.,1997.112-b.
3. Mansurov A. "Musiqa san'ati fanlarida zamonaviy axborot texnologiyalari" Toshkent – 2016y 38-b
4. Musiqa ensklopediyasi

ELEKTRON RESURSLAR

1. Internet ma'lumotlari
2. WWW.Ziyonet.
3. Pedagog.uz.
4. Kutubxona.u

